YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарид Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjabova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRIPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	



HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI

Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti,
assistent o‘qituvchisi

E-mail: Mahliyoumarova9893@gmail.com

ORCID: 0009-0002-3134-0852

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlarning turistik salohiyatini oshirishda turistik zonalar tasnifining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Turistik zonalarining shakllanish omillari, resurs salohiyati hamda hududiy rivojlanish strategiyalaridagi o‘rni yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli Qonuni asosida erkin, kichik va maxsus turistik zonalarining huquqiy maqomi ochib beriladi. Shuningdek, turistik zonalarining investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish hamda xizmat ko‘rsatish sektorini kengaytirishdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari hududiy turizmni samarali rejalashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Turistik zona, turistik-rekreatsion zona, hududiy rivojlanish, turizm salohiyati, infratuzilma, investitsiya, erkin turistik zona, maxsus turistik zona, kichik turistik zona, rekreatsiya, barqaror rivojlanish, turizm iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical significance of classifying tourism zones in enhancing the tourism potential of regions. The factors influencing the formation of tourism zones, their resource potential, and their role in regional development strategies are examined. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRQ-549 dated 18-07-2019 “On Tourism” the legal status of free, small, and special tourism zones is explained. The study also substantiates the role of tourism zones in attracting investment, developing infrastructure, and expanding the service sector. The research findings contribute to improving mechanisms for effective planning and management of regional tourism.

Key words: Tourism zone, tourism and recreation zone, regional development, tourism potential, infrastructure, investment, free tourism zone, special tourism zone, small tourism zone, recreation, sustainable development, tourism economy.

Аннотация. В статье анализируется теоретическое и практическое значение классификации туристических зон в повышении туристического потенциала регионов. Рассматриваются факторы формирования туристических зон, их ресурсный потенциал и роль в стратегиях территориального развития. На основе Закона Республики Узбекистан от 18-07-2019 г. № ЗРУ-549 «О туризме» раскрывается правовой статус свободных, малых и специальных туристических зон. Обосновывается значение туристических зон в привлечении инвестиций, развитии инфраструктуры и расширении сферы услуг. Результаты исследования направлены на совершенствование механизмов планирования и управления региональным туризмом.

Ключевые слова: Туристическая зона, туристско-рекреационная зона, территориальное развитие, туристический потенциал, инфраструктура, инвестиции, свободная туристическая зона, специальная туристическая зона, малая туристическая зона, рекреация, устойчивое развитие, экономика туризма.

KIRISH

Hududlarning turistik imkoniyatlarini rivojlantirishda mavjud tabiiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda infratuzilmaviy resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda turistik zonalarini tashkil etish va ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash hududiy turizmni rejalashtirish hamda boshqarishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Turistik zonalar muayyan hududning ixtisoslashuvi, resurs salohiyati va bozor talablaridan kelib chiqqan holda shakllanib, turizm xizmatlarini kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Turistik zonalar turlarining tasnifi hududlarda turizm faoliyatini tizimli tashkil etish, investitsiya oqimlarini jalb etish hamda turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.



Ushbu zonalar rekreatsion, madaniy-tarixiy, ekologik, sog'lomlashtirish, ziyorat, sarguzasht va biznes turizmi yo'nalishlari bo'yicha tasniflanishi mumkin bo'lib, har bir tur o'ziga xos infratuzilma, xizmat ko'rsatish modeli va rivojlanish strategiyasini talab etadi. Shu jihatdan, turistik zonalar tasnifi hududlarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda turizmni diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, hududlarning turistik salohiyatini oshirishda turistik zonalar turlarini tasniflash masalasi nazariy jihatdan puxta o'rganishni, amaliy jihatdan esa aniq rejalashtirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi. Mazkur mavzuni chuqur tahlil qilish hududiy turizmni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish hamda milliy turizm tizimining raqobatbardoshligini yanada oshirishga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot davomida bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy asarlari o'rganildi. Ushbu yo'nalish ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda keng muhokama qilinadi, chunki u nafaqat turizm sohasi, balki geografiya, iqtisodiyot, ekologiya, ijtimoiy fanlar va boshqa ko'plab sohalar bilan ham uzviy bog'liqdir. Quyida ayrim olimlarning turistik-rekreatsion zonalar haqidagi qarashlariga qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Jumladan, I. S. Tuxliyev, B. Sh. Safarov va S. A. Abduhamidovlarning "Turizm nazariyasi va amaliyoti" asarida¹ ekoturizm sayyohlik bozorining 10–20 foizini qamrab olgani, uning o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2–3 baravar yuqori ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi mutaxassislari tomonidan O'zbekistonning ekoturistik hududlari xaritasi ishlab chiqilgan. Ushbu xaritaga muvofiq, mamlakat hududi 14 ta ekoturistik hududga ajratilgan bo'lib, har bir ekoturistik tumanni alohida ekoturistik zona sifatida qarash mumkin. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo'yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarko'l, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Farg'ona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor va Surxondaryo ekoturistik hududlari kiritilgan [1].

N. S. Kudryavtsev, J. G. Trabskaya va L. V. Xorevalarning fikricha², turistik zona sayyohlar orasida eng ko'p talab qilinadigan yo'nalishning muayyan qismi bo'lib, u milliy va jahon turistik bozorlariga olib chiqiladigan asosiy diqqatga sazovor obyektlarni o'z ichiga oladi [2].

A. V. Lebedev³ esa turistik zonani "bir yoki bir nechta hududda joylashgan, turizm sanoatining tarkibiy qismlari o'rtasida o'zaro aloqalarni ta'minlaydigan, muayyan hududning barqaror va jadal rivojlanishiga xizmat qiladigan hamda aholining dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi turizm majmuasi" sifatida ta'riflaydi [3].

S. A. Stepanova⁴ turistik zonaga "bir yoki bir nechta mintaqalar bilan chegaralangan, obyektlarning yuqori darajada zich joylashuvi, hududning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlangan infratuzilma komponentlarining mavjudligi, iqtisodiy salohiyat hamda qulay tabiiy-iqlim omillari asosida turistik xizmatlar taklifi shakllangan, transportdan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan, shuningdek, turizmni rivojlantirish bo'yicha tashqi va ichki dasturlarga turistik xizmatlarni joriy etish imkoniyatiga ega hudud" deb ta'rif beradi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishi davomida qiyosiy tahlil va tizimli qiyoslash, shuningdek, ekspert baholash kabi bir qator ilmiy usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turistik zonalarining hududlarning turistik salohiyatini oshirishdagi o'rnini tahlil qilishdan avval, ushbu zonalarining mohiyati hamda ularning turlari haqida umumiy tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. Chunki turistik zonalar o'zining funksional yo'nalishi, infratuzilma darajasi, tabiiy va madaniy resurslari, shuningdek, ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasi bilan bir-biridan farqlanadi. Aynan ushbu tasnif hududning turizm sohasidagi imkoniyatlarini to'g'ri baholash, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda turistik resurslardan samarali foydalanish jarayonida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada qonunchilikda qo'llaniladigan "turistik zona" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keng ishlatiladigan "turistik-rekreatsion zona" tushunchasi bilan uyg'un holda talqin qilinadi. Chunki amaliyotda

1 I.S. Tuxliyev, S.A. Abduhamidov "Turizm nazariya va amaliyot" darslik. 2021.

2 Кудрявцев Н.С., Трабская Ю.Г., Хорева Л.В. Туристские зоны как новый элемент развития и продвижения дестинации на национальный и мировой рынки услуг. //ЭКОНОМИКА ПРЕДПРИЯТИЙ, РЕГИОНОВ И ОТРАСЛЕЙ, 24.09.2018. С. 122.


3 Лебедев А.В. Особые экономические зоны как механизм социально-экономического развития региона. // Современная Россия: проблемы социально-экономического и духовнополитического развития, Всероссийская науч.-практ. конф. (2008; Волгоград). Всероссийская научно-практическая конференция «Социальная технологизация в современной России», 5 мая 2008 г.: [материалы] / отв. ред. А.А.Огарков. Ч. I. –М.; Волгоград: ООО «Глобус», 2008.

4 Степанова С.А. Развитие туристского комплекса региона на основе повышения инвестиционной привлекательности туристско-рекреационных территорий: автореф. дис. ... д-ра эк. наук. –Санкт-Петербург: СПбГИЭУ, 2010. С. 9.



ushbu zonalar nafaqat turistik xizmatlarni tashkil etish, balki rekreatsion, sog'lomlashtirish, ekologik va madaniy funksiyalarni ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi Qonunining 4-bobiga muvofiq, turistik zonalar tashkil etilish darajasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi va ular quyidagicha tasniflanadi (1-rasm).



1-rasm. Turistik zonalarining tashkil etilish darajasiga ko'ra turlari⁵

1-rasmda turistik zonalarining tashkil etilish darajasiga ko'ra turlari keltirilgan bo'lib, unda turistik zonalarining hududiy miqyos va boshqaruv shakliga qarab guruhlariga ajratilishi aks ettiriladi. Ushbu tasnif turistik zonalarini tashkil etishda hududiy ixtisoslashuv, resurs salohiyati hamda infratuzilma darajasini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.


Turistik zonalarini belgilash jarayonida, eng avvalo, mazkur hududlarda turistik resurslarning mavjudligi, shuningdek, ularning turli turizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun qanchalik qulay va imkoniyatlarga boy ekani e'tiborga olinadi.

Turistik zonalarda barpo etilayotgan turizm industriyasi obyektlarining mulkdorlari ushbu obyektlarni loyihalash, qurish hamda ulardan foydalanish jarayonida hududning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, tarixiy merosi, ilmiy va madaniy muhiti, badiiy xususiyatlari hamda infratuzilmasi bilan uyg'unlashuvini albatta hisobga olishlari lozim.

Turizm sohasi subyektlari turistik zonalar hududlarida o'z faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida atrof-muhitni asrashga, madaniy meros obyektlari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga nisbatan ehtiyotkor va mas'uliyatli munosabatni ta'minlashlari zarur.

Shuningdek, turistik zonalarda amalga oshiriladigan turistik faoliyat hamda qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa turdagi faoliyatlar ushbu zonalarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlarga zid bo'lmasligi va ularning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi Qonunining 4-bobi 18-moddasiga muvofiq, turizmni har tomonlama rivojlantirish, turistik resurslarni zarur darajada asrab-avaylash, hududlarning turistik salohiyatini oshirish hamda ushbu sohani rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida turistik zonalarining turli turlarini tashkil etish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Turistik zonalarining turlari⁶

5 Muallif ishlanmasi.


6 Muallif ishlanmasi.



Qonunchilikda turistik zonalar bir nechta asosiy turlarga ajratiladi: erkin turistik zonalar, kichik turistik zonalar va maxsus turistik zonalar.

2-rasmda turistik zonalarining ushbu turlari keltirilgan bo'lib, ular hududiy rivojlanish strategiyasi, investitsiya rejimi hamda boshqaruv shakliga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni (2-rasm) yanada chuqurroq tahlil qilganda, turistik zonalar turlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning muayyan mezonlar asosida tasniflanganini ko'rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Turistik zonalar qanday hududlarga tengligi⁷

3-rasmda turistik zonalarining boshqa hududiy-iqtisodiy zonalar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan bo'lib, unda turistik zonalarining iqtisodiy rivojlanish instrumenti sifatidagi o'rni ifodalanadi.

Ushbu 3-rasm asosida turistik zonalarining qaysi hududlarga tenglashtirilishi hamda ularning boshqa imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunining 18-moddasida belgilab berilgan. Mazkur Qonun ijrosi doirasida viloyatlarda qator turistik zonalar tashkil etilgan. Xususan, Toshkent viloyatida "Chorvoq" erkin turistik zonasi, Jizzax viloyatida "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi, Urganch shahrida "Shovot", Xiva shahrida esa "G'ovuk ko'l" kichik turistik zonalar tashkil etilgan.

Quyida yuqorida sanab o'tilgan turistik zonalarining har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tiladi. Erkin turistik zona erkin iqtisodiy zonaga tenglashtiriladi (3-rasm). Erkin turistik zona hamda erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlariga erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunchilik normalari tatbiq etiladi. Jumladan, ushbu zonalar va ularning ishtirokchilari uchun belgilangan imtiyozlar hamda preferensiyalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Shu o'rinda erkin iqtisodiy zonaga qisqacha to'xtalib o'tilsa, erkin iqtisodiy zona⁸ — mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va xorijiy kapitalni, istiqbolli texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tashkil etiladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralarga va alohida huquqiy tartibotga ega bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik va jismoniy shaxslarga xo'jalik, moliyaviy hamda boshqa turdagi faoliyat bilan erkin shug'ullanishga ruxsat etiladi. Bunda faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan faoliyat turlari istisno etiladi.

Kichik turistik zona kichik sanoat zonasiga tenglashtiriladi (3-rasm). Kichik turistik zonalarga nisbatan kichik sanoat zonalar to'g'risidagi qonunchilik⁹ normalari qo'llaniladi. Kichik sanoat zonasi — ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonunchilik hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan, ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan hududdir.

Maxsus turistik zona belgilangan maxsus hudud bo'lib, unda turistik resurslar hamda mazkur hududda muayyan turistik mahsulotni shakllantirish asosida turistlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi turistik industriya obyektlari jamlanadi (2-rasm). Maxsus turistik zonani tashkil etishda ushbu zona ishtirokchilari uchun alohida shartlar, imtiyozlar va preferensiyalar belgilanishi mumkin.


⁷ Muallif ishlanmasi.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.04.1996 yildagi 220-I-son <https://lex.uz/uz/docs/-2046?ONDATE=01.06.1996%2000>.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.03.2020 yildagi 134-son <https://lex.uz/docs/-4758585>.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda zamonaviy turizm rivojida turistik zonalar sohani jadal rivojlantiruvchi hamda iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Ushbu tendensiya mamlakatimizda ham kuzatilmoqda. Jumladan, turistik-rekreatsion zonalar O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishiga bir qator yo'nalishlar orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Turistik-rekreatsion zonalarining iqtisodiyotga ijobiy ta'siri¹⁰

Turizm daromadlari: Turizm faoliyatining barqarorlashuvi davlat va mahalliy iqtisodiyotlarda aholi uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, soliqlar tushumlarini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Infratuzilmaning rivojlanishi: Turistik hududlar infratuzilmasining rivojlanishi yo'l tarmoqlari, mehmonxona xizmatlari, transport, tibbiy xizmatlar va boshqa infratuzilma yo'nalishlarining takomillashuviga olib keladi. Mazkur jarayon mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash: Soha rivojlanishi dam olish va turizm hududlarida mehmonxonalar, restoranlar, turistik kompaniyalar hamda suvenir do'konlari kabi kichik va o'rta biznes subyektlarining kengayishiga zamin yaratadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti va aholi bandligi uchun muhim ijobiy natija bo'lib, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4428097>.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.04.1996 yildagi 220-I-son <https://lex.uz/uz/docs/-2046?ONDATE=01.06.1996%2000>.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.03.2020 yildagi 134-son <https://lex.uz/docs/-4758585>.
5. Tuxliyev I. S., Abduhamidov S. A. "Turizm nazariyasi va amaliyoti" darsligi. — 2021.
6. Mamatqulov X. M. "Turizm infratuzilmasi": o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2011.
7. Komilova N. A., Usmanova L. I. "Razvitie turizma O'zbekistana: problemy i realii." // SamISI, O'zbekiston: turizm, iqtisodiyot va ekologiya. Ilmiy to'plam. — Samarqand, 2019.
8. Saydalimova U. S. "Turizm zonalar, ularning turlari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati": maqola. — 2022-y.
9. Кудрявцев Н. С., Трабская Ю. Г., Хорева Л. В. Туристские зоны как новый элемент развития и продвижения дестинации на национальный и мировой рынки услуг // Экономика предприятий, регионов и отраслей. — 24.09.2018. — С. 122.
10. Лебедев А.В. Особые экономические зоны как механизм социально-экономического развития региона. // Современная Россия: проблемы социально-экономического и духовнополитического развития, Всероссийская науч.-практ. конф. (2008; Волгоград). Всероссийская научно-практическая конференция «Социальная технологизация в современной России», 5 мая 2008 г.: [материалы] / отв. ред. А.А.Огарков. Ч. I. —М.; Волгоград: ООО «Глобус», 2008.
11. Степанова С.А. Развитие туристского комплекса региона на основе повышения инвестиционной привлекательности туристско-рекреационных территорий: автореф. дис. ... д-ра эк. наук. —Санкт-Петербург: СПбГИЭУ, 2010. С. 9.

10 Muallif ishlanmasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
